



HARBIY JURNALISTIKADA JANRLAR VA ULARNING TURLARI

Xolmurzayev B.A

O‘ZDJTU Xalqaro jurnalistika Fakulteti Axborot xizmati
va Jamoatchilik bilan aloqalar yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Harbiy jurnalistikada janrlar ko‘plab turli janrlarni o‘z ichiga oladi, chunki bu soha o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, maxsus bilimlar, aniq va to‘g‘ri axborot yetkazishni talab etadi. Bugun dunyo matbuotida yangilikni yetkazish, uni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yangilik tezkor axborot bo‘lib, o‘zining yangiligi bilan auditoriyada siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy qiziqish uyg‘otadi. Jurnalist bugungi kunda ommaviy axborot vositalari orqali yangiliklarning eng ahamiyatli, eng qiziqarli va eng dolazrblarinigina olib omma e‘tiboriga taqdim etishi lozim. Uni qanday usulda yetkazish esa jurnalist mahoratiga bog‘liq. Harbiy sohada ham xuddi shunday, chunki harbiy sohada ham asosan harbiy idoralar va korxonalar bilan bog‘liq bo‘lgan axborotlarni ommaga konvergensiya usulida yetkazib berishdir.

“Konvergensiya” lotin tilidagi “convergo” - “yaqinlashaman” so‘zidan olingan bo‘lib, ingliz tilida convergence sifatida talaffuz qilinadi va bir nuqtada jamlanish ma’nosini beradi. Rus olimasi M. Pavlikova kanadalik OAV tadqiqotchisi Denisa Makkueylning fikrlariga tayangan holda uni quyidagicha ta’riflaydi: “Bu bir xil mazmunga ega bo‘lgan mahsulotning turli xil kanallarda, turli vositalar yordamida tarqalishidir. Harbiy jurnalistikada harbiy mavzudagi materiallarda auditoriya uchun o‘ziga xos jihatlari mavjud:

- Ijtimoiy-siyosiy yo‘nalish bo‘lgani uchun materiallar rasmiy harakter kasb etadi;
- Notanish atama va nomlar ko‘p ishlatiladi;
- Maxfiy va xizmat doirasidagi axborot, ma’lumotlar tufayli mavzu chuqur ochib berilmaydi;



- Harbiylashgan idoralar faoliyati yopiq harakterga ega bo'lgani sababli axborot olish imkoniyati kam. Bu harbiy jurnalistikaning asosiy tamoyillari hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Harbiy jurnalistika janrlari, maxfiylik, jurnalist mahorati, axborot yetkazish, harbiy jurnalist texnikasi, material turlari kabilar.

Kirish: Harbiy jurnalistika - bu o'ziga xos, murakkab va javobgarlikni talab qiluvchi soha bo'lib, u jamoatchilikni harbiy voqealar va masalalar haqida xabardor qilish, tahlil va tushuntirish vazifalarini bajaradi. Bu sohada faoliyat yuritish uchun jurnalistlar o'ziga xos bilim va tajribaga ega bo'lishlari, maxfiylik va xavfsizlikka rioya qilishlari kerak. Bu esa jurnalistlar uchun qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki ular to'g'ri va xolis axborot tarqatishlari kerak. Propaganda va dezinformatsiya: Ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatilgan propaganda va noto'g'ri axborotlarga qarshi kurashish harbiy jurnalistlarning muhim vazifasiga aylanmoqda. Har bir axborotni yetkazishda uning qanchalik rost yoki yolg'on ekanligini aniqlash, axborotni faktcheking qilish muhim hisoblanadi. Jurnalist uchun ayniqsa harbiy jurnalist uchun faktcheking eng muhim bilishi zarur bo'lgan omildir.

Faktcheking nima?

Xalqaro miqyosda bu - faktcheking (ingliz tilidagi "factchecking" so'zidan olingan) deb nomlanadi. Faktcheking bu faktlarni tekshirish bo'lib, reallikda mavjud bo'lgan fakt va mavzular o'rtasidagi nomuvofiqlikni tekshirishdir.

Harbiy jurnalistika janrlari - bu janrlar urushlar, harbiy amaliyotlar va boshqa harbiy voqealarni yoritishda qo'llaniladi. Ular o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, harbiy mavzularni keng auditoriyaga yetkazish, voqelikni to'g'ri aks ettirish va tahlil qilish maqsadida foydalaniladi. "Jurnalistik ijod mahorati asoslari" darsligida filologiya fanlari nomzodi H.Saidov yangilik tushunchasini 2 ta omil bilan izohlaydi. Shunga muvofiq yangilik:

1. Noodatiy, kishilar uchun kutilmagan bo'lishi kerak.
2. Voqea qiziqarli bo'lishi kerak.



Muallif bugun ommaviy axborot vositalari voqea-hodisalarning eng ahamiyatli, eng qiziqarlilarinigina tanlab chop etish, efirga berish, internet tarmog‘i orqali tarqatishga o‘tganiga e’tiborni qaratib, xabarlarni “muhim” yoki “muhim emas”ga ajratadi.

“Jurnalistikaga esa muhim xabarni anglatadigan yangi atama kirib keldi. U “Yangiliklar” deya nomlandi. Bugun dunyo matbuotida yangilikning ahamiyati katta. Matbuot nashrlari - gazeta va jurnallarning dastlabki sahifalari yangiliklarga ajratiladi. Radio va televideniye orqali namoyish etiladigan va havo mavjlariga uzatiladigan axborot dasturlari o‘zlarining birinchi mavzularini yangiliklar bilan boshlaydilar”, deb yozadi jumladan u.

Harbiy jurnalistika nafaqat voqealarni yoritish, balki ularni tahlil qilish va keng jamoatchilikka ma'lumot yetkazish orqali urush va tinchlik masalalarida katta rol o‘ynaydi. Bu janrlar harbiy mavzularni chuqurroq va ko‘proq jihatdan yoritishga imkon beradi. Filologiya fanlari nomzodi H. Saidovning “Jurnalistik ijod mahorati asoslari” darsligida “reportaj” jurnalistikada ishlatiladigan mohiyatidan kelib chiqib, axborot berish, so‘zlab berish, tasvirlab berish kabi ma’nolarni anglatadi.

Filologiya fanlari doktori M. Xudoyqulov “Jurnalistika va publisistika” kitobida “Axboriy publisistikaning asosiy janrlaridan biri reportajdir. Reportaj so‘zi lotincha reportare – yetkazib berish degan ma’noni bildiradi. Reportaj – voqea, hodisalarni bevosita, jonli aks ettiruvchi, tezkor yoritib beruvchi axboriy materialdir. Uning oddiy xabardan farqi shuki, xabarda hayotdan olingan fakt, voqea, hodisalar umumiy, ya’ni qayd etish tarzida bayon etilsa, reportajda fakt, voqea, hodisalar haqida bevosita bo‘lib o‘tayotgan paytda, shu voqea va hodisalar yuz berayotgan joydan to‘ppadan-to‘g‘ri xabar beriladi, boshqacha qilib aytganda hayot voqealari qayd etilmaydi, balki harakatda, jonli tasvirlanadi hamda bu jarayonda jurnalist bevosita ishtirok etadi”, deb yozadi .

Reportajlarni dunyo olimlari muammoli, voqeaband va mavzuli kabi turlarga ajratadi. Infografika - zamonaviy axborot texnologiyalari taraqqiyoti sharoitida nafaqat axborot ko‘lami ortmoqda, balki uning tezligi ham shiddat bilan kuchaymoqda. Bugun matbuotga



matn va grafika uyg'unlashgan, ya'ni konvergentlashgan yangi janr bo'lib infografika kirib keldi. Mazkur sintetik janrni ko'proq axborot janrlari sirasiga qo'shsa bo'ladi.

Infografika lotincha "informatio"(xabar qilish, tushuntirish, bayon qilish) hamda grekcha "grafikos" (yozaman) so'zlaridan olingan bo'lib, axborot, ma'lumot va bilimlarni grafik shaklda uzatish hamda murakkab axborotni tez va aniq yetkazishdir. Intervyu inglizcha so'z bo'lib, "so'rab olish", "surishtirish" degan ma'nolarni anglatadi.

Filologiya fanlari doktori M.Xudoyqulov "Jurnalistika va publisistika" kitobida shunday yozadi: "Mazkur janrning matbuotda keng uchrashining sababi shundaki hayotdagi har bir fakt, voqea va hodisaning qanday bo'lib o'tganligi, tafsiloti odatda shu faktdan xabardor bo'lgan, voqea-hodisani ko'rgan-bilgan odamlardan so'rab-surishtirib bilinadi"

Harbiy jurnalistikada tahliliy janrlar

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Nazira Toshpo'latovanning "Tahliliy jurnalistika" o'quv qo'llanmasida keltirilishicha, tahliliy jurnalistika mazmun-mohiyati, yo'nalish va yozilishiga ko'ra bir necha janrlar bilan chegaralanadi. Bularga korrespondensiya, maqola, taqriz, jurnalist surishtiruvi kabi janrlar kiradi. Mazkur janrlarning bir-biriga o'xshash va shu bilan birga farqli tomonlari bor.

Harbiy matbuotda maqola

Tahliliy jurnalistikada muhim o'rin egallaydigan maqola – lotincha "articulus" so'zidan olingan bo'lib, "bo'g'in", "a'zo", "qism" degan ma'nolarni anglatadi.

Maqola predmetning harakati, uning tashqi olam bilan munosabati, ular orasidagi ilg'anmaydigan bog'liqlikka oydinlik kiritish, yuzaga kelgan qarama-qarshilikning sabab va oqibatlarini aniqlash va ularni haqqoniy yoritishga bag'ishlanadi. Jurnalistdan bunday jarayonlarni o'rganish, muayyan mavzuga bag'ishlangan fakt va dalillarni yig'ish, ularni bir-biri bilan qiyoslash, taqqoslashi, muhim va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratish, tizimga solish, muammoning tuguni, uni keltirib chiqargan sabablarning voqelikka ta'siri, muammoning yechimini topish yo'llari orqali mavzuni ochib berish talab etiladi.



Xulosa. Axborot faqatgina biron-bir voqea-hodisa yuzasidan ma'lumot yetkazish, kishilarni yangilik yoki o'zgarishlardan voqif etish vositasi, deb o'ylaydiganlar yangilishadi. Bugun axborot va kommunikatsiya moddiy, ma'naviy, ijtimoiy sohalarning rivojiga turtki beradigan, hatto hal qiluvchi rol o'ynaydigan darajagacha yetdi.

Ommaviy axborot vositalarining bugun jamiyat va inson hayotiga ta'sirini so'z bilan ifodalab bo'lmaydi. Ayniqsa zamonaviy axborot va axborot-kommunikatsiya vositalari rivojlanishi, taraqqiyotning olg'a qadam bosishi sohada misli ko'rilmagan o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Natijada jahon axborot makoni o'ziga xos kurash maydoniga aylanyapti. Yetakchi axborot agentliklari, nashrlari dunyo axborot makonida hukmronligi doirasini qanchalar kengaytirishga urinayotganini ko'rib, bilib turibmiz. Buning ortida yetakchi mamlakatlar g'oyasi, mafkurasi yotishini, shu yo'l orqali insonlar ongini, dunyoqarashini egallashga kurash beayov kechayotganini sergak, hushyor kishilar yaxshi anglashadi.

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:

1. A. Safarov "Harbiy jurnalistika asoslari". Toshkent-2020. 171 B
2. H. Saidov "Jurnalistik ijod mahorati asoslari". Toshkent-2012.
3. M. Xudoyqulov "Jurnalistika va publisistika". Toshkent-2010. 288 B
4. Nazira Toshpo'latovanning "Tahliliy jurnalistika" Toshkent-2007
5. <https://mudofaa.uz/>
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Harbiy_jurnalistika